Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi 83-sonli qarorining 13 va 15-maqsadlarida iqlim o'zgarishlari oqibatlariga qarshi kurashish, ekotizimni himoyalash va tiklash, o'rmondan oqilona foydalanish, cho'llanishga qarshi

⁴⁸ <https://www.xabar.uz/jamiyat/shavkat-mirziyoyevning-oliy-majlis-va-ozbekiston-xalqi>.

⁴⁹ <https://sdgs.un.org/2030> agenda. Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development.

⁵⁰ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarori, 21.02.2022 yildagi 83-son. <https://lex.uz/docs/5870397>

⁵¹ <https://sdgs.un.org/goals/goal15>. Department of Economic and Social Affairs, Sustainable Development.

kurashish, yerlarning yemirilishini to'xtatish va ortga qaytarish, bioxilma-xillikning yo'qolib ketish jarayonini to'xtatish kabi masalalar o'z aksini topgan.

Barqaror rivojlanish maqsadlaridan kelib chiqqan holda global darajada dunyo aholisining buguni va kelajakdagi farovonligini ta'minlashda olib borilayotgan islohotlar ko'lamida mavjud ekotizimni muhofaza qilish, agrar islohotlarni samarali amalga oshirish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni davom ettirish maqsadga muvofiq. Darhaqiqat, global darajada tus olayotgan turli ekologik-iqtisodiy inqirozlar ma'lum darajada aholining iqtisodiy holatiga va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy faoliyatiga salbiy ta'sir etadi. Shu bois, moliyaviy yo'qotishlarni bartaraf etishda sug'urta faoliyatining o'rni va ahamiyat beqiyosdir.

Mamlakatimiz o'z istiqboliga erishgan davrdan boshlab, o'zining tadrijiy rivojlanish jarayonlarini iqtisodiyotning turli tarmoq va sohalari rivojida bevosita huquqiy islohotlarning samarali amalga oshirilishi yurtimiz farovonligi va taraqqiyotiga xizmat qilmoqda. Barqaror taraqqiyotni ko'zlagan davlatning kelajagi iqtisodiyotning tarmoq va sohalari rivojiga bevosita bog'liq. Shu jihatdan, iqtisodiyot sektorida mavjud bo'lgan moliyaviy institutlar (bank, moliya, soliq, valyuta, fond va tovar birjalari faoliyati) kabi sug'urta faoliyatini ham barqaror darajada rivojlantirish zamon talabiga aylandi.

Sug'urta faoliyati jamiyat farovonligini ta'minlashda, oziq-ovqat xavfsizligini oldini olishda, agrar sohani turli xavf-xatarlardan moliyaviy jihatdan muhofaza qilishda, aholining turli mulklarining himoya kafolatini ta'minlashda, insonlarning hayoti hamda salomatligini ijtimoiy va moddiy jihatdan himoya qilishda ishtirok etadigan muhim strategik sohalardan biridir.

Har bir davlatning iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlanishi tarmoq va sohalarda olib borilayotgan huquqiy islohotlarning samarasiga bog'liq. Respublikamizda sug'urta faoliyatining huquqiy asoslariga ilk poydevor 1993-yil 6 mayda "Sug'urta to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishidir, shuningdek, 2002-yil 5 aprelda "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonuni hamda amaldagi 2021-yil 23- noyabrdagi O'RQ-730-sonli 72-moddani o'z ichiga olgan yangi tahrirdagi "Sug'urta faoliyati to'g'risida" gi qonunlarda o'z aksini topgan⁵².

Darhaqiqat, sug'urta faoliyati bevosita jamiyat aholisining mulkiy hamda nomulkiy manfaatlarini himoyalaydigan, iqtisodiy xavfsizlik va moddiy barqarorlikni ta'minlovchi samarali moliyaviy instrument sifatida rivojlanib, takomillashib kelmoqda.

Sug'urta faoliyatiga tegishli manbaalar va ilmiy adabiyotlarni nazariy jihatdan tadqiq qilish, sug'urta faoliyatining rivojlanish bosqichlari, sug'urtaning iqtisodiyotdagi o'rni va vazifalari, tabiiy va texnogen hodisalar davrida sug'urtaning nechog'li ahamiyatini ilmiy jihatdan ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

Sug'urta munosabatlariga tarixiy jihatdan to'xtaladigan bo'lsak, u ming yillar oldin vujudga kelib, miloddan avval 1700 yilda Qadimgi Bobil podsholigining qonunlariga binoan, kredit mablag'larini ya'ni, qarzga olingan mablag'larni sug'urta qilish tadbirlari Bobil hukmroni Hammurapi kodeksiga asosan yaratilgan. Dastlabki sug'urta doirasidagi shartnomalar 7-8 asr muqaddam Vizantiyada tuzilgan⁵³.

Sug'urta faoliyati chet el olimlarining ham tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Xususan, sug'urta faoliyati borasida o'zining nazariy qarashlarini ilgari surgan F.Berdou sug'urta faoliyati bu o'tgan XVI asrning oxirida Buyuk Britaniyada dastlab amalga oshirilganligini ta'kidlab, quyidagi fikrni bildirgan holda sug'urta faoliyati 1666 yilda Londonda ro'y bergan Buyuk London yong'ini hamda Britaniyaning xalqaro dengiz savdosidagi ahamiyati yuqori bo'lganligi sababi bilan izohlaydi⁵⁴. Darhaqiqat, sug'urta faoliyatining asosiy maqsadi, ko'rilgan va ko'rilish xavfi bo'lgan moliyaviy zararlardan himoya qilish hamda moliyaviy tanglikni oldini olishga qaratiladi.

⁵² O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 23 noyabrdagi O'RQ-730-sonli "Sug'urta faoliyati to'g'risida" gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/5739117>

⁵³ The World Book Encyclopedia. Volume-10., USA, 1995., 524 p.

⁵⁴ Felipe Berdou. Target Insurance, Jan 15, 2004. Patent Application Publication. US 2004/0010426 A1. <https://www.freepatentonline.com/20040010426.pdf>.

J.François Outreville o'zining ilmiy tadqiqotlarini sug'urta faoliyatiga bag'ishlagan holda sug'urta - bu turli yo'qotishlar xavfidan himoyalanişning keng tarqalgan vositasi bo'lib insonning xohish-istaklariga javob berish maqsadida yaratilgan. Sug'urta shaxslarning turli xavf risklaridan sodir bo'lish ehtimolini bashorat qilgan holda moliyaviy yo'qotishlardan himoya qilish vositasi sifatida xizmat qiladi deb hisoblaydi⁵⁵. Tadqiqotchining sug'urta tushunchasiga bo'lgan nazariy yondashuvlariga qo'shilgan holda sug'urta faoliyati bevosita yuridik va jismoniy shaxslarning turli baxtsiz va kutilmagan stixiyali yoki texnogen hodisalar natijasida yuzaga keladigan talofatlarni moliyaviy jihatdan qoplab berishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

Sug'urta faoliyati rivojiga o'zining salmoqli hissasini qo'shgan olim A.Manes o'z davrida sohaning nazariy va uslubiy asoslarini ilmiy tadqiqotlarida yoritib o'tgan. U o'z ishlarida umumiy va tarmoqlar sug'urtasini o'rgan holda sug'urta bu – kutilmagan tarzda ayrim holatlarning ro'y berishi turli zararlarni yuzaga kelishi natijasida moddiy ahvolni yaxshilash uchun oldindan ma'lum bo'lgan pul mablag'lari zarur bo'lishi hamda ushbu mablag'larga bo'lgan zaruriyat to'liq yoki qisman sug'urta orqali qoplanishi nazarda tutilgan⁵⁶.

Olimning fikriga qo'shimcha ravishda aytish mumkinki, sug'urta hodisasi kutilmaganda va tasodifan yuzaga kelishi va har qanday holatda sug'urtalangan va sug'urtalanmagan shaxslarga birdek moliyaviy zarar keltirishi ayni haqiqat. Shu bois, sug'urta mukofotlarini o'z vaqtida to'lanishi sug'urta kafolatini ta'minlab beradi.

Robert Hartwig ham sug'urta faoliyati borasidagi tadqiqotlarida sug'urta sanoati – jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan o'z sug'urtalovchilari hisobiga moliyaviy aktivlarini o'tkazish orqali sug'urta kompaniyasi tomonidan turli xavf-xatarlardan himoya qilinishi ta'minlanadi. Sug'urta sektorini asosan uchta toifaga bo'lgan holda: mulk, hayot va sog'liq sug'urtasi mavjudligi haqida to'xtalib o'tgan⁵⁷.

MDH olimlaridan Yu.T.Axvlediani bevosita sug'urta tizimining mamlakatda samarali faoliyat yuritishi, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni muvaffaqiyatli rivojlantirishning strategik omillaridan biri bo'lib, ijtimoiy, nafaqa ta'minoti bilan bog'liq muammolarni hal qilishga imkon berishii, fuqarolarning turmush farovonligini oshirishga yordam berishi, shuningdek, davlatning investitsion salohiyatini oshirishga xizmat qilishi haqida fikr yuritgan. Sug'urta - nafaqat budjetni sug'urta hodisalari yuz berganda zararni qoplash xarajatlaridan ozod qiladi, balki, bozor iqtisodiyoti sharoitida uzoq muddatli investitsiyalarning eng barqaror manbalaridan biri hisoblanadi⁵⁸. Darhaqiqat, Rossiyalik olimning fikrlariga qo'shilgan holda ta'kidlash lozimki, sug'urta tizimi bevosita har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal qilishda o'ziga xos shakllantirilgan sug'urta fondi mablag'lari hisobiga turli ko'rilgan moliyaviy zararlarni qoplashda, shuningdek, ichki investitsiyaga yo'naltirishga ham o'ziga xos ahamiyatga ega.

N.B.Grishchenko tomonidan turli xavf-xatarlarni bartaraf etishni sug'urta tizimi orqali amalga oshirish, ya'ni "sug'urta tizimi orqali makro, mezo va mikro darajada turli tavakkalchiliklarning moliyaviy oqibatlarini va javobgarligi bevosita sug'urta kompaniyalariga topshirilishidan" iboratligini ta'kidlaydi⁵⁹. Bizning fikrimizcha, turli sug'urta faoliyatiga oid iqtisodiy adabiyotlarda sug'urtaning xavf-xatarni bartaraf etish vazifasi asosan bir xil va bu sohada yagona yondashuv mavjudligini ta'kidlaymiz.

⁵⁵ J. François Outreville. Introduction to Insurance and Reinsurance Coverage. Burgundy School of Business, Dijon, France. Chapter · January 2002. <https://www.researchgate.net/publication/281783245>

⁵⁶ Манэс А. Основы страхового дела /сокр. пер. с нем. - Репринтное издание. - М.: Издательский центр "Анкил", 1992. с.108

⁵⁷ Robert Hartwig, Ph.D., PCU. Insurance Handbook. A guide to insurance: what it does and how it works. ©2010 Insurance Information Institute. 205-p. www.iii.org/insurancehandbook

⁵⁸ Ю.Т.Ахвледiani. Рынок страховых услуг: современные тенденции и перспективы развития: монография / Ю.Т. Ахвледiani. - Москва: РУСАЙНС, 2017. с. 4-5.

⁵⁹ Н.Б.Грищенко. Основы страховой деятельности: учеб. пособие. М., 2004. С. 15.

Hozirda dunyo miqyosida turli iqlim o'zgarishlari bilan bog'liq xavflar va tabiiy ofatlarning chegarasiz darajada ortib borishi har qanday mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayot tarziga ta'sir qilmoqda. Bu borada MDH olimlaridan Ye.A.Tokareva ham bevosita o'z tadqiqotlarida tabiiy ofatlar xavfini moliyaviy yumshatish borasida sug'urtalash davlatning asosiy tayanadigan omillaridan biri sifatida izohlagan. Sug'urta bozorida xususiy sug'urta xizmatlarini rivojlantirish va sug'urta bozorini davlat tomonidan tartibga solish, tabiiy ofatlar xavfini to'g'ridan-to'g'ri davlat tuzilmalari tomonidan sug'urtalash masalalariga to'xtalib o'tgan. Mamlakatda sug'urtalash shakllarini tanlash uning tabiiy xususiyatlariga bog'liq holda tabiiy ofatlar va ulardan himoyalaniş usullari, qadriyatlar, tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy va rivojlanishning boshqa jihatlari haqidagi o'z g'oyalarini ilgari surgan⁶⁰.

O'zbekistonda sug'urta faoliyatini ilmiy-amaliy jihatdan rivojlanishida hissa qo'shgan iqtisodchi olim X.Shennaev tomonidan "Sug'urta" tushunchasiga quyidagicha ta'rif berishni maqsadga muvofiq, deb hisoblab: sug'urta - oldindan ko'rib bo'lmaydigan voqea-hodisalar sodir bo'lishi natijasida yuridik va jismoniy shaxslarga yetkazilgan zararlarni ular tomonidan to'langan sug'urta mukofotlaridan shakllantirilgan pul jamg'armasi hisobidan qoplash bilan bog'liq munosabatlarga sug'urta deyiladi⁶¹. Darhaqiqat, sug'urta tushunchasiga berilgan ta'rif o'ziga xos ma'noli tarzda ifoda etilgan bo'lib, sug'urta mukofotlarini to'lagan yuridik va jismoniy shaxslargina sug'urta qoplamalarini olish imkoniyatiga ega bo'ladi, sug'urtalanmagan shaxslarga moliyaviy ko'mak sifatida sug'urta naf keltirmaydi.

Mamlakatimizda ham sug'urta faoliyatini ustuvor darajada rivojlantirish borasida iqtisodchi olimlardan X.M.Shennaev, I.K.Ochilov, S.Ye.Shirinov, I.G'.Kenjaevlar tomonidan "sug'urta faoliyati jismoniy va yuridik shaxslar manfaatlarini himoya qilish, ularning risklar yuz berishi oqibatida ko'rishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplashning zaruriy vositasi sifatida paydo bo'ldi hamda rivojlandi" deb o'z fikrlarini ta'kidlashgan⁶². Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda sug'urta faoliyati bevosita xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan shakllantiriladigan pul fondlari hisobidan ma'lum darajada sug'urta hodisalari natijasida yetkazilgan zararni qoplash maqsadida moliyaviy instrument sifatida qo'llab-quvvatlaydi.

Respublikamizda sug'urta faoliyatining nazariy-uslubiy jihatdan rivojlanishi borasida o'ziga xos yondashuvi bilan tadqiqotlar olib borgan iqtisodchi olim Q.M.Qo'ldoshev tomonidan ham sug'urta faoliyati rivoji ilmiy jihatdan batafsil yoritilgan⁶³. Uning fikricha sug'urta iqtisodiy munosabatlarning muhim elementi sanaladi hamda sug'urta faoliyati quyidagi funksiyalarni bajarishi, ya'ni, xavf-xatar, zahiralar tashkil etish, qayta taqsimlash, jamg'arish, nazorat va investitsiya qilish masalalari o'z aksini topgan.

Sug'urta faoliyatini o'rganish va uni tadqiq etish bugungi kunda ko'plab iqtisodchi olimlarni ham qiziqtirib kelmoqda, xususan, G.J.Jumaeva, R.X.Djalilov, R.I.Rashidovlar tomonidan ham sug'urta tushunchasiga to'xtalib o'tib, ya'ni sug'urta – bu ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplashga mo'ljallangan maqsadli sug'urta fondlarini uning qatnashchilari o'rtasida badallar hisobidan shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan qayta taqsimlash munosabatlari yig'indisi⁶⁴. O'z fikrlarini bayon etgan iqtisodchi olimlar bevosita sug'urta – ma'lum fondlar orqali sug'urta ishtirokchilari o'rtasida turli zararlarni qoplashga yo'naltirilishi haqida to'xtalib o'tishgan. Biroq, bugungi kunda xavflar darajasining ortib borishi sug'urtaga bo'lgan ehtiyojni yanada oshiradi.

Sug'urta bozorining faoliyat sohalari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan ikkiga bo'linadi: mulkiy va shaxsiy sug'urta (1.1-rasmga qarang). Mulkiy sug'urta o'z ichiga mulkiy javobgarlik

⁶⁰ E.A.Токарева. Мировой опыт страхования рисков природных катастроф. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва – 2016. Специальность 08.00.14 – Мировая экономика. с.11.


⁶¹ X.Shennaev. O'zbekiston Respublikasida sug'urta faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari. Monografiya. "Iqtisod-moliya" nashriyoti. Toshkent-2021.: 26-b.

⁶² X.M.Shennaev, I.K.Ochilov, S.E.Shirinov, I.G'.Kenjaev. Sug'urta ishi. O'quv qo'llanma. "Tafakkur bo'stoni" nashriyoti. Toshkent-2014.: 11-6.

⁶³ Q.M.Qo'ldoshev. Sug'urta texnologiyalari. Darslik. – T.: "Iqtisodiyot", 2021. 11-b.

⁶⁴ G.J.Jumaeva, R.X.Djalilov, R.I.Rashidov. Sug'urta nazariyasi va amaliyoti. "Vneshinvestrom" nashriyoti – T.:2019. 19-b.

va turli tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq zararlarni qoplash hamda qishloq xo'jaligi sohasiga tegishli faoliyatni sug'urtalashga qaratiladi.



1.1-rasm. Sug'urta faoliyati sohalari bo'yicha sug'urta xizmatlarining tasniflanishi⁶⁵

Shaxsiy sug'urtaning o'ziga xos turlari shakllanib, asosan: hayotni sug'urtalash, baxtsiz hodisalaridan sug'urtalash, turli kasalliklardan sug'urtalash va tibbiy sug'urta hamda boshqa sug'urta xizmatlariga bo'lgan ehtiyoj o'sib bormoqda.

Sug'urta faoliyatining rivojiga nazariy jihatdan hissa qo'shgan olimlardan X.I.Boev ham sug'urta faoliyatining nazariy ahamiyatiga to'xtalib quyidagicha mualliflik yondashuvini amalga oshirgan bo'lib, sug'urta – bu yuridik yoki jismoniy shaxsning tabiiy yoki ijtimoiy hodisalar oqibatidagi ko'rgan zararini qoplash demakdir. Ko'rilgan zararlar sug'urtachining ixtiyorida bo'lgan sug'urta fondi hisobidan qoplanadi⁶⁶.

Darhaqiqat, ta'kidlab o'tish joizki, sug'urta faoliyati natijasida ko'rilgan turli zararlar sug'urta fondi hisobidan qoplanadi, biroq, hamma zararlar ham hisobga olinmaydi, faqat sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan bo'lishi talab etiladi. Ushbu fikrlarni to'ldirgan holda bevosita sug'urta tushunchasini quyidagicha ta'riflaymiz: “Sug'urta - sodir bo'lgan va favqulodda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tabiiy zararlar hamda ularning kuchini qirqishga qaratilgan amaliy tadbirlar va zarar natijasida hosil bo'lgan kamomadni o'rnini qoplash yuzasidan sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlardir”. Bevosita, ushbu ta'rifdan kelib chiqib aytish joizki, tabiiy ofatlar kutilmagan holatda favqulodda sodir bo'lishi

⁶⁵ Ilmiy adabiyotlarni tadqiq qilish asosida muallif tomonidan tuzilgan.

⁶⁶ Boev X.I. Sug'urtalash. O'quv qo'llanma.-T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti., 2005.18-b.

natijasida moliyaviy zararning yuzaga kelishi tabiiy hol, bunda esa sug'urta munosabatlarining to'g'ri yo'lga qo'yilganligi shaxs yoki ob'ektni vaziyatdan chiqish imkonini beradi.

Sug'urta faoliyati rivojiga hissa qo'shgan iqtisodchilardan G.Xalikulova ham O'zbekistonda sug'urta tizimi va uni amal qilish mexanizmining nazariy asoslari, hozirgi sug'urta tizimi holati va rivojlanishining asosiy muammolari hamda sug'urta tizimini takomillashtirish yo'nalishlari bo'yicha o'z tadqiqot ishlarini amalga oshirgan⁶⁷. Shuningdek, tadqiqotchi tomonidan sug'urta faoliyatida xolis xizmat ko'rsatish va sug'urta bozorida kompaniyalarni saqlab qolish va raqobatbardoshligi masalalari batafsil yoritib o'tilmagan.

M.S.Xamroev ham bevosita o'z tadqiqotlarida sug'urta xizmatlari bozorida innovatsion faoliyatni rivojlantirish masalalariga to'xtalib quyidagi fikrlarni ta'kidlab o'tgan, ya'ni, O'zbekiston sug'urta bozorida eng ko'p talab qilinadigan innovatsion sug'urta xizmatlarini sotishning yangi kanallarini rivojlantirishga qaratilgan innovatsiya hisoblanadi. Bunday istiqbolli usullardan biri bu internetdan foydalangan holda sotuvni tashkil etishdir⁶⁸.

Sug'urta bozorida yangi sug'urta mahsuloti hisoblangan hayot sug'urtasini rivojlantirish borasida tadqiqot olib borgan D.A.Baratova ham bevosita sug'urtaning jamg'arib boriluvchi turi sug'urtalanuvchining uzoq muddatga mo'ljallangan maqsadlariga yo'naltirilishi, riskli hayot sug'urtasi esa sug'urtalanuvchi hayotida yuz berish ehtimoli bo'lgan baxtsiz hodisadan ko'riladigan zararni qoplashni ko'zda tutgan holda qisqa muddatda tuziladi. Jismoniy shaxslarning jamg'arib boriladigan hayot sug'urtasida sug'urta himoyasini amalga oshirishning moliyaviy mexanizmi hisobidan ushbu sug'urta xizmatlaridan foydalanuvchi fuqarolarning to'plagan mablag'lari jamg'arma uchun transformatsiya qilinadi⁶⁹. Shuningdek, bugungi kunda sug'urta bozorida hayot sug'urtasi faoliyatiga bo'lgan talab ortib bormoqda.

Mamlakatimiz sug'urta bozori rivojiga to'xtaladigan bo'lsak, sug'urta bozorini rivojlantirish hamda sug'urta faoliyatiga bo'lgan e'tibor Davlatimiz rahbari tomonidan ham sohani qo'llab-quvvatlash, aholining sug'urtaga bo'lgan qiziqishini oshirish, sug'urtalanuvchilar qamrovini oshirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Sug'urta bozorida aksiyadorlik jamiyati sifatida faoliyat yuritayotgan sug'urta kompaniyalari bilan birga xususiy sug'urta kompaniyalari hamda qo'shma sug'urta kompaniyalarining tashkil etilishi sohada raqobat muhitini shakllanishiga olib keldi.

Sug'urta faoliyati borasida iqtisodchi olimlarining yuqorida ta'kidlab o'tilgan barcha ta'riflarda o'ziga xos yutuqlar bilan birga ayrim kamchiliklardan holi emas. Fikrimizcha, sug'urta - iqtisodiy kategoriya bo'lib, turli stixiyali (tabiiy hodisalar), texnogen (yekologik tusdagi halokatlar) va kutilmagan turli-tuman tabiiy ofatlar ro'y berishi natijasida huquqiy va jismoniy shaxslarning mol-mulki va sog'ligiga zarar yetkazilganda, bu zararlarni qoplashga mo'ljallangan maxsus maqsadli pul fondlarini shakllantirish va undan foydalanish orqali ko'rilgan moliyaviy zararlarni qoplashga yo'naltirishdir.

Sug'urta faoliyatini rivojlanishi mamlakatning iqtisodiy o'sishiga, yalpi ichki mahsulotda sug'urtaning ulushini hamda aholi jon boshiga sug'urta mukofotlari hajmini oshirishga bo'lgan talabni shakllantirish lozim. Ushbu talablardan kelib chiqib, sug'urta bozorida sug'urta xizmatlariga bo'lgan talab va taklifni o'rganish va sohada raqobat muhitini takomillashtirish, yangi sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqish va uning harakatini baholash asnosida sug'urta kompaniyalarining raqobat maydonida yanada ko'proq harakat qilishlariga talabni oshirish maqsadga muvofiq.

Keskin raqobat muhiti sharoitida barcha tarmoq va sohalar kabi moliyaviy institutlardan biri bo'lgan sug'urta tashkilotlari o'rtasida ham raqobatning shakllanishi, shuningdek, sug'urta bozori konyukturasiga moslashishni talab qiladi. Shu bois, sug'urta kompaniyalarining

⁶⁷ Xalikulova G.T. Sug'urta tizimi va uni amal qilish mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha f.d. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: - 2019. 62-b.

⁶⁸ Xamroev M.S. Sug'urta xizmatlari bozorining innovatsion faoliyatini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha f.d. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: 2021. 13-b.

⁶⁹ Baratova D.A. O'zbekistonda jamg'arib boriladigan hayot sug'urtasini rivojlantirish yo'llari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha f.d. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - T.: 2020. 12-b.

raqobatbardoshligini oshirishda ular tomonidan ko'rsatiladigan sug'urta xizmatlari ko'lamini kengaytirish, yangi sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqish, sug'urta tariflarini kamaytirish hamda sug'urtaviy bonuslarni joriy qilish, sug'urta faoliyatida raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish asosida masofaviy sug'urta xizmatlarini takomillashtirish lozim.

Sug'urta faoliyatini o'rganish borasida olib borilgan tadqiqotlar natijasida aytish mumkinki, yuqorida keltirilgan olimlarimizning fikr va mulohazalarini imkon qadar tadqiq etgan holda shiddatli raqobat muhiti sharoitida vujudga kelayotgan turli tarkibiy o'zgarishlar va keng ko'lamli islohotlar jarayonida respublikamizda sug'urta faoliyatini barqaror rivojlantirish, Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan maqsadlarni inobatga olgan holda yanada takomillashtirib borish davr talabiga aylandi.

Shuningdek, sug'urta faoliyatini keng tadqiq etish, sug'urtaning nazariy va uslubiy asoslarini yanada takomillashtirish, bu borada ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va mamlakatimiz sug'urta amaliyotiga joriy etish orqali sug'urta faoliyati barqarorligini ta'minlashga erishish muhim ahamiyatga ega.

**Проректор по учебной части
Самаркандского института экономики и сервиса,
д.ф.э.н., профессор
Асланова Дильбар Хасановна
Старший преподаватель кафедры «Экономика»
Бухарского государственного университета
д.ф.э.н. (PhD)
А.Б.Усманова**

УЗБЕКИСТАН И ЕГО РОЛЬ В ОРГАНИЗАЦИИ ТЮРКСКИХ ГОСУДАРСТВ (ОТГ)

Аннотация: В данной статье раскрывается цель и суть создания Организации Тюркских Государств (ОТГ), указываются её задачи во внешнеэкономической деятельности стран-участниц, в частности Республики Узбекистан, как полноправного и ключевого участника и партнёра. Рассматриваются результаты экономических показателей Узбекистана от вступления в данный союз.

Ключевые слова: Организации Тюркских Государств, ОТГ, Узбекистан, Нахичеванское соглашение, Видение тюркского мира 2040.

Abstract: This article reveals the purpose and essence of the creation of the Organization of Turkic States (OTG), specifies its tasks in the foreign economic activity of the participating countries, in particular the Republic of Uzbekistan, as a full and key participant and partner. The results of economic indicators of Uzbekistan from joining this union are considered.

Keywords: Organization of Turkic States, OTG, Uzbekistan, Nakhchivan Agreement, Vision of the Turkic World 2040.

Тюркский совет, который был создан 3 октября 2009 года в Нахичевани, является международной межправительственной организацией, основой деятельности которой являются укрепление дружбы и добрососедства между тюркоязычными странами, сохранение мира, безопасности и взаимного доверия в регионе и мире.

На данный момент в Совет входят Узбекистан, Азербайджан, Казахстан, Кыргызстан и Турция.

Положения преамбулы Нахичеванского соглашения, подписанного в 2009 году, подтверждают стремление государств-членов Организации Тюркских Государств следовать целям и принципам Устава ООН и закрепляют основную цель ОТГ,